

KUBROVIYA TARIQATI VA ALLOMALARI MEROSI TO‘G‘RISIDAGI XORIJIY TADQIQOTLAR TAHLILI

Abdurasulov Shahzod

*Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti “Tarixshunoslik, manbashunoslik va tarixiy tadqiqot usullari” yo‘nalishi 2-kurs magistranti
abdurasulovshahzod944@gmail.com 94 602 2399*

XX asrga kelib, islom olami va jahon falsafiy tafakkurining rivojiga katta hissa qo‘sib kelgan tasavvuf ta’limoti va ayniqsa, uning rang-barang falsafasi Sharq va G‘arb sharqshunos, islomshunos olimlarining diqqatini o‘ziga jalb etdi. Xorijda Markaziy Osiyo tasavvuf tariqatlari allomalari va ularning ilmiy merosi bo‘yicha ko‘plab olimlar tadqiqot olib borishgan. Xususan, g‘arbdan Markaziy Osiyo tasavvuf tariqatlarni o‘rganish bo‘yicha jiddiy tadqiqot olib borgan sharqshunoslar bisyor. Bulardan eng taniqlisi ingliz olimlari Nikolsson⁶⁶ va Arberri⁶⁷, fransuz olimi L. Massinon⁶⁸, nemis olimi T. Nyoldeke⁶⁹ va nemis olimasi Anna Mariya Shimmel⁷⁰, M.T.Stepanyans, V. Jukovskiy, Ivanov, R. Arnold kabi sharqshunos olimlarning tasavvufni to‘g‘ri tushungan holda qilgan jiddiy ilmiy ishlari ahamiyatga molikdir.

Sharqda tasavvufni quyidagi olimlar o‘rganganlar: N. Zarrinkub⁷¹, Inoyatxon, Djavad Nurbaxsh, Idris Shox, R.N.Nosirov, Sajjodii Sa‘id Ja‘far, Saljuk Eroydin, Ahmad al Naqshbandiy al Xolidiy, yapon olimi T. Izosu va boshqalardir. Bular tasavvufning asl mohiyati haqida fikr yuritib, Markaziy Osiyo tasavvuf tariqatlariga ham alohida e’tibor bergenlar.

Najmiddin Kubro va kubroviya tariqati bir qator xorijiy olimlarning tadqiqotlarida markaziy o‘rinda turgan. Xususan, kubroviya tariqati to‘g‘risida Jon penser Trimingham⁷², Fritz Mayer⁷³, Annemari Shimmel⁷⁴, Devin Deves⁷⁵, Terri Zarkon⁷⁶ kabi olimlar o‘z tadqiqotlarida tahlil qilishgan.

J. S. Trimingham o‘zining “Суфийские ордены в исламе” (Islomdag'i tasavvuf tariqatlari) tadqiqotida boshqa tasavvuf tariqatlari qatori kubroviya tariqatiga ham atroflicha to‘xtaladi. Bu tariqatning paydo bo‘lishi, tuzilishi va uning o‘ziga xos xususiyatlarini ochib berishga harakat qiladi. J. S. Triminghamning ma’lumot berishicha,

⁶⁶Elektron manba: <https://www.britannica.com/biography/Reynold-Alleyne-Nicholson>

⁶⁷ Arberry A.J. Sufism. – London: 1950.

⁶⁸ Крачковский И. Ю., Бартольд В. В., Ольденбург С. Ф. Записка об учёных трудах Луи Массиньона. // «Известия Российской академии наук. VI серия». – Ташкент: — 1924. — С. 18.

⁶⁹ Нельдеке, Теодор // Энциклопедический словарь Брокгауза и Ефона : в 86 т. (82 т. и 4 доп.). — СПб., 1890—1907.

⁷⁰ Elektron manba: <https://www.livelib.ru/author/352369-annemari-shimmel>

⁷¹ N. Zarrinkub .So‘fiylar merosining qadri. 1963. Yirik monografiya umumiylxarakterga ega bo‘lib, islom tasavvufini Eron sharqshunoslik maktabi nuqtai nazaridan o‘rganish sohasidagi jahon ilm-fanining so‘nggi yutuqlarini o‘zida aks ettirgan.

⁷² Тримингэм Дж. Суфийские ордены в исламе / Пер. с англ. А.А. Ставиской; под ред. О.А. Акимушкина. – М.: Наука. Главная редакция Восточной литературы, 1989. – 328 с.

⁷³ Fritz Meier. Najmuddin al-Kubra Die "fawdtih al-gamal w a fawdtih al-galal" des Nagmuddin Kubra. Wiesbaden. 1957.

⁷⁴ Schimmel, Annemarie. Mystical dimensions of Islam. The University of North Carolina Press Chapel Hill. 1975. – 512 p.

⁷⁵ Devin DeWeese. The Eclipse of the Kubrovian in Central Asia. Iranian Studies, 21/1-2 (1988). Pp.45-83.

⁷⁶ Zarcone T. Turkish Sufism in India: The Case of the Yasawiyya. In, Confluence of Cultures. French Contributions to Indo-Persian Studies. Pp.82-92. Monohar. Centre for Human Sciences, New Delhi. 1995

kubroviya tariqati vakillari o‘zlarining sanad (hujjat) va izchil zikrlari bilan nom qozonganlar. Qolaversa, olim bu tadqiqotida kubroviya tariqatining izdoshlari ya’ni uning nasabnomasi bilan ham tanishtiradi⁷⁷. Bu tariqatga ergashuvchilar qoida tariqasida, bizning davrimizga qadar saqlanib qolmagan. Olim o‘z tadqiqotida xivalik Najmuddin Kubro Misrda ta’lim olgan bo‘lib, fors shayxi Ruzbixon al-Vazzon al-Misriy va Abu Najib as-Suhrawardiyning shogirdi bo‘lganligini yozib o‘tgan. Shunga qaramay, uning asosiy ustozи, unga tabarruk xirqasini kiydirgan Ismoil al Kasriy bo‘lgan⁷⁸. Xorazmda Majiddin Bog‘dodiy bilan birgalikda xonaqoh tashkil etgan. Majididdin Bog‘dodiy mashhur Farididdin Attorning piri bo‘lgan.

Olim Najmuddin Kubro o‘z asarlarining aksariyatini arab tilida yozganligini ta’kidlaydi⁷⁹.

Najmuddin Kubro, tarixdan ma’lumki, mo‘g‘ullarga qarshi jangda juda qattiq kurash olib boradi. O‘z vatani Xorazmni saqlash uchun o‘z xalqi bilan vatan himoyasida jonbozlik ko‘rsatadi. J. S. Trimmingem o‘z tadqiqotida Najmuddin Kubroning vatanparvarligiga urg‘u berib bu voqeani ham eslatib ketadi. Najmuddin Kubroning karomatlari ham ko‘p bo‘lgan, lekin J. S. Trimmingem ular haqida to‘xtalmagan. Najmuddin Kubroning qabri Urganchda joylashgan bo‘lib, hamon ziyoratgoh sifatida saqlanib kelmoqda.

J. S. Trimmingem kubroviya tariqati ta’siridan kelib chiqqan bir nechta tariqatlarga ham ta’rif berib o‘tadi. Olimning xabar berishicha, kubroviylik tariqatidan ajralib chiqqan kichik tariqat yoki shaxobchalar quyidagilardir:

- Firdavsiya tariqati Shayx Najmuddin Kubroning shogirdi Sayfiddin Boxarziydan boshlanib, uning nufuzi xalifalaridan biri Badriddin Firdavsiy nomi bilan bog‘liqdir. Ushbu tariqat Hindistonning Dehli va Bihar viloyatlarida keng tarqalgan.
- Nuriya tariqati asoschisi Nuriddin Abdurahmon Isfaroni bo‘lib, kubroviyaning Bog‘doddagi shaxobchasidir.
- Rukniya tariqati kubroviya tariqatining Xurosonddagi shaxobchasi bo‘lib, nomi tariqat asoschisi Rukniddin ibn Abulkorim Ahmad Alouddavla Simnoni nomidan olingan. U Xuroson tasavvuf olamida buyuk mutasavvif va valiy zot deb ulug‘langan.
- Hamadoniya tariqati Hindistonning Kashmir viloyatida keng tarqalgan. Rukniya tariqatidan ajralib chiqqan ushbu shaxobcha Sayyid Ali Shahobiddin Hamadoniy nomi bilan bog‘liq bo‘lib, hind diyorida islom dinining tariqat orqali keng yoyilishida bu zotning xizmati kattadir.
- Ig‘tishoshiya tariqati asoschisi Is’hoq Huttaloniy (vaf. 1423 y.) bo‘lib, Xurosonda keng tarqalgan.

⁷⁷ Ilova qismida

⁷⁸ Тримингэм Дж. Суфийские ордены в исламе / Пер. с англ. А.А. Ставиской; под ред. О.А. Акимушкина. – М.: Наука. Главная редакция Восточной литературы, 1989. – 328 с. Сс.54-55.

⁷⁹ Тримингэм Дж. Суфийские ордены в исламе / Пер. с англ. А.А. Ставиской; под ред. О.А. Акимушкина. – М.: Наука. Главная редакция Восточной литературы, 1989. – 328 с. Сс. 58-60.

• Nurbaxshiya tariqati Is'hoq Huttaloniyning shogirdi Muhammad ibn Abdulloh Nurbaxsh nomi bilan bog'liqidir.

• Nema'tullohiya tariqati asoschisi Sayid Ne'matulloh Valiy bo'lib, Eronda keng tarqalgan. Mazkur tariqatning g'arb mamlakatlarida ham xonaqohlari mavjud. Tariqatning hozirgi rahbari doktor Javd Nurbaxshdir⁸⁰.

Kubroviylik tariqatining shaxobchalari turlicha bo'lsa ham, asl maqsad va maslaklari birdir. Yuqorida zikr etilgan tariqat yo'naliishlari Shayx Najmuddin Kubro tomonidan nazariy asoslangan qoidalarga tayanadi.

Kubroviya tariqati nemis sharqshunosi olimasi Annemari Shimmel⁸¹ ning ko'plab tadqiqotlar uchraydi. Annamaria Shimmel Berlin universitetda ustozি Hans Geynrix Shederdan qattiq ta'sirlanib, Jaloliddin Rumiyning yirik asarlaridan biri bo'lgan "Shams Tabriziy devonini" o'rganishga kirishadi. Shu davrdan Annemari Shimmel islomshunoslikka qiziq boshlaydi.

Shimmel hayotida burilish nuqtasi 1954 yilda Anqara universitetiga din tarixi professori etib tayinlanganida yuz berdi. U Turkiyaning poytaxtida besh yil davomida turk tilida dars berib, mamlakat madaniyati va tasavvufiy an'analari bilan yaqindan tanishadi. U Anqara universitetda ilohiyotdan dars bergen birinchi ayol va musulmon bo'limgan birinchi ayol edi. Bu davr unda Jaloliddin Rumiy ijodiga qiziqishni yanada kuchaytirdi. Shundan keyin u 1967 yildan boshlab Garvardda hind-musulmon madaniyati bo'yicha o'qituvchi sifatida ish boshladi va 1970 yilda u to'liq professor etib tayinlandi. Uning keyingi yigirma besh yillik faoliyatini aynan Garvard universitetida davom etdi. Deyarli har yili u kuzda Pokistonga sayohat qilgan. U yerda u katta maqomga erishdi. Musulmon diyorlariga ko'p sayohat qilishi uning keyingi faoliyatiga katta tasir ko'rsatdi. Uning tasavvufga oid darslarida doimo ko'p o'quvchilar qatnashgan. Ana shunday kurslaridan biri uning eng mashhur "Mystical dimensions of islam"⁸² (Islomning mistik o'lchovlari) kitobiga aylantirilgan. 1992-yilda Garvard universitetidan nafaqaga chiqadi va Bonn shahrida uning hayotining so'ngi davrlari deyarli doimiy ma'ruza o'qish va yozishdan iborat bo'ldi. Islom she'riyatini tarjima qilish uning sevimli mashg'uloti bo'lgan. U ingliz va nemis tillarida yuzdan ortiq kitoblarni nashr etdi, ularning aksariyati oddiy odamlar uchun mo'ljallangan, ya'ni uning asarlarida badiylik elementlari ham mavjud bo'lgan.

⁸⁰ Тримингэм Дж. Суфийские ордены в исламе / Пер. с англ. А.А. Ставиской; под ред. О.А. Акимушкина. – Москва: Наука. Главная редакция Восточной литературы, 1989. – 328 с. Сс. 64-68.

⁸¹ Annemari Shimmel nemis sharqshunosi va olimi bo'lib, islam, xususan, so'fiylik haqida ko'plab tadqiqotlar olib borgan. Annemari Shimmel 1922-yil 7-aprelda Germaniyaning Erfurt shahrida tug'ilgan. Olima 1939-yilda, 17-yoshida, Yevropada natsistlar hukmronligi davrida Berlin universitetida o'qishni boshladi. 1941-yil noyabnda "Die Stellung des Kalifen und der Qadis im spätmittelalterlichen Ägypten" (So'nggi o'rta asrlardagi Misrda xalifa va qozilarning o'rni) dissertatsiyasi bilan doktorlik darajasini oldi. O'shanda u atigi 19 yoshda edi. 1946-yilda 23 yoshida "Islom tasavvufining asosiy namoyandalarini" mavzusidagi ma'ruzasini o'qidi. Natijada, Germaniyaning Marburg universitetida arab va islomshunoslik professori bo'ldi. U 1954 yilda "Islomdagi tasavvufi sevgi" mavzusidagi dissertatsiya bilan Marburg universitetida dindar tarixi bo'yicha ikkinchi doktorlik darajasini oldi. Shimmel hayotida burilish nuqtasi 1954 yilda Anqara universitetiga din tarixi professori etib tayinlanganida yuz berdi. U Anqara universitetda ilohiyotdan dars bergen birinchi ayol va musulmon bo'limgan birinchi ayol edi. 1967 yil u Garvardda hind-musulmon madaniyati bo'yicha o'qituvchi sifatida ish boshladi va 1970 yilda u to'liq professor etib tayinlandi. Uning keyingi yigirma besh yillik faoliyatini aynan Garvard universitetida davom etdi. Bu davrda Bonn universitetining faxriy professori ham edi. Bonnda uning hayotining so'ngi davrlari deyarli doimiy ma'ruza o'qish va yozishdan iborat edi. Islom she'riyatini tarjima qilish uning sevimli mashg'uloti bo'lgan. Olima 2003-yil 26-yanvarda vafot etdi.

⁸² Schimmel, Annemarie. Mystical dimensions of Islam. The University of North Carolina Press Chapel Hill. 1975. – 512 p.

Olimaning “Mystical dimensions of islam” (Islomning mistik o'lchovlari) kitobi 1975-yili nashr etilgan. Bu asarning dastlabki qismida tasavvufning asl mohiyati, uning kelib chiqish tarixi to‘g‘risida batafsil ma’lumot yozilgan. Islomda komil inson tushunchasiga alohida to‘xtaladi. Bundan tashqari, islom tasvvufining o‘zidan oldingi din va ta’limotlar bilan o‘xshash va farqli jihatlarini, ularning islom tasavvuf tariqatlariga ta’sirini qiyoslash orqali ochib berishga harakat qilgan. Asarning ikkinchi qismi esa islom olamida keng tarqalgan tasavvuf tariqatlariga bag‘ishlangan. Bu tariqatlar orasida Markaziy Osiyo mintaqasida vujudga kelgan tariqatlar ham alohida o‘rin olgan. Xususan, kubroviya tariqati to‘g‘risida qiziqarli ma’lumotlar uchraydi.

Annamaria Shimmelning “Mystical dimensions of islam” (Islomning mistik o'lchovlari) kitobida xabar berilishicha, Najmuddin Kubroning arabcha Qur'on tafsiri to'qqiz jilda uning shogirdi Najmuddin Roziy va undan keyin tariqatning boshqa bir taniqli a'zosi Alauddavla Simnaniy tomonidan yozib olingan⁸³. Olima kubroviya tariqatining Turkiya va Hindistonga tarqalgani haqida ma’lumot beradi. Uning shogirdi Najmuddin Roziy mo'g'ullar bosqinidan oldin Xorazmni tark etib, bu tariqatni Turkiya hududlariga olib boradi. Kubroviya XIV asrning ikkinchi yarmida Kashmirdagi eng muhim ta’limotga aylandi. Ma'lumotlarga ko'ra, Sayyid Ali Hamadoniy yetti yuzta izdoshi bilan Hindistonda hijrat qildi va u yerda bu tariqatning yoyilishiga turtki bo‘ldi⁸⁴.

Annamaria Shimmelning 1995-yilda “Jonon mening jonimda”⁸⁵ nomli asari dunyo yuzini ko‘rdi. Ushbu asarda Shimmel xonim Islom olamida ayollarning o‘rni, sufiy olimlar asarlarida ayol obrazi qanday tasvirlangani yoritilgan. Ushbu asar o‘zbek tiliga ham tarjima qilingan.

Najmuddin Kubroning asosiy asari “Favoyih ul Jamol va favotihul-Jalol” (“Jamlining muatttarlari va kamolotning egalari”) shveysariyalik olim Fritz Mayer tomonidan to‘liq tahlil qilingan⁸⁶. Olim o‘z tadqiqotida bu asarga alohida manba sifatida yondashib, uning qimmatini g‘arb dunyosiga ochib beradi.

Hozirda Indiana shtatidagi Bloomington universitetining Islom va Markaziy Yevroosiyo tadqiqotlari professori Devin Deves o‘z tadqiqotlarida Najmuddin Kubro va kubroviya tariqatiga alohida to‘xtaladi. U 1985-yilda Indiana universitetida doktorlik dissertatsiyasini himoya qiladi va o‘shandan beri Markaziy Osiyodagi islom, xususan, tasavvuf va uning siyosiy va ijtimoiy jihatlari bo‘yicha tadqiqotlarni faol davom ettirib kelmoqda. Markaziy Osiyo islom tarixiga oid manbalarga bo‘lgan qiziqish va ularni o‘z tadqiqotlarida chuqrur tahlil qilish olimga ushbu manbalar mualliflarining motivlarini tushunishga yordam beradi.

⁸³ Schimmel, Annemarie. *Mystical dimensions of Islam*. The University of North Carolina Press Chapel Hill. 1975. – 512 p. Pp. 254-256.

⁸⁴ Schimmel, Annemarie. *Mystical dimensions of Islam*. The University of North Carolina Press Chapel Hill. 1975. – 512 p. Pp. 258.

⁸⁵ Annamaria Shimmel. *Jonon mening jonimda. “Sharq” nashriyot-matbaa konserni bosh tahririyati*. Toshkent. 1999. –176 b.

⁸⁶ Fritz Meier. *Najmuddin al-Kubra Die "fawdtih al-gamal wa fawdtih al-galal"* des Nagmuddin Kubra. – Wiesbaden. 1957.

Devin Devesning mana shunday manbalar asosida yaratilgan asarlari ichida bizning tadqiqotimiz uchun dolzarb bo'lgan asari "Studies on Sufism in Central Asia"⁸⁷ (Markaziy Osiyo tasavvufini o'rganish) ayniqsa qimmatlidir. Devin Devesning ushbu asarida Markaziy Osiyodagi xalqlarining tasavvuf tarixiga oid 1988-2005-yillarda olib borgan tadqiqotlarning yig'indisi sifatida nashr etilgan o'n ikkita tadqiqoti mavjud. Bulardan to'rtta tadqiqot (I, II, V, XI) butunlay kubroviya tariqatini o'zida aks ettiradi.

Bu tadqiqotlarda kubroviya tariqati tarixiga oid juda muhim manbalar tahlil qilingan. Devin Deves ushbu to'plamga xronologik tartibda XIII asrdan XVII asrgacha bo'lgan davrni qamrab oladigan tasavvuf tariqatlariga oid ma'lumotlarni aks ettirilgan. Olim bu to'plamga 1988-yildan 2005-yilgacha olib borgan tadqiqotlarning natijasini jamlagan. Shu jihatdan olib qaraganda, uzoq yillik mehnat natijasi hisoblanadi.

Devin Devesning "Sayyid Ali Hamadani and Kubrawi Hagiographical Tradition"⁸⁸ ("Sayyid Ali Hamadoniy va Kubrovii shajaraviy an'anasi") hamda "The Eclipse of the Kubroviyah in Central Asia"⁸⁹ ("Markaziy Osiyoda kubroviylikning yuksalishi") maqolalari bevosita kubroviylik tariqatiga bag'ishlangan. "Sayyid Ali Hamadani and Kubrawi Hagiographical Tradition"⁹⁰ ("Sayyid Ali Hamadoniy va Kubrovii shajaraviy an'anasi") nomli tadqiqotida ikki buyuk tasavvuf ulomasi Sayyid Ali Hamadoniy va Najmuddin Kubroning hayot yo'li va ilmiy faoliyatni kompleks ravishda ko'rib chiqiladi. Bu esa bu ikki olimning faoliyatini solishtirish imkonini beradi. Aytish joizki, bu tadqiqot ham asosiy manbalarga tayanadi.

"The Eclipse of the Kubroviyah in Central Asia"⁹¹ ("Markaziy Osiyoda kubroviylikning yuksalishi") tadqiqotida esa kubroviya tariqatiga alohida yondashiladi. Xususan, bunda Najmuddin Kubroning shaxsiy hayotiga to'xtalib o'tish bilan birga, uning shogirdlari va izdoshlarining faoliyatiga ham alohida e'tibor qaratadi. Keyingi asrlarda kubroviya tariqatining Markaziy Osiyo xalqlari hayotida tutgan o'rni va bu tariqatning yuksalishi tadqiqotning markaziy maydonida turadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Arberry A.J. Sufism. – London: 1950.
2. Devin DeWeese . Studies on Sufism in Central Asia. – London and New York, 2012. 57 p.
3. Devin DeWeese. The Eclipse of the Kubroviyah in Central Asia. Iranian Studies, 21/1-2 (1988). Pp.45-83.

⁸⁷ Devin DeWeese . Studies on Sufism in Central Asia. – London and New York, 2012. 57 p.

⁸⁸ Devin Deweese. Sayyid Ali Hamadani and Kubrawi Hagiographical Tradition. The Legacy of Medieval Persian Sufism, ed. Leonard Lewisohn (London; Khanaqahi Nimatullahi Publications. School of Oriental and African Studies, 1992), Pp. 121-158.

⁸⁹ Devin DeWeese. The Eclipse of the Kubroviyah in Central Asia. Iranian Studies, 21/1-2 (1988). Pp. 45-83.

⁹⁰ Devin Deweese. Sayyid Ali Hamadani and Kubrawi Hagiographical Tradition. The Legacy of Medieval Persian Sufism, ed. Leonard Lewisohn (London; Khanaqahi Nimatullahi Publications. School of Oriental and African Studies, 1992), Pp. 144-158.

⁹¹ Devin DeWeese. The Eclipse of the Kubroviyah in Central Asia. Iranian Studies, 21/1-2 (1988). Pp.45-83.

4. Fritz Meier. Najmuddin al-Kubra Die "fawdtih al-gamal w a fawdtih al-galal" des Nagmuddin Kubra. Wiesbaden. 1957.
5. Крачковский И. Ю., Бартольд В. В., Ольденбург С. Ф. Записка об учёных трудах Луи Массиньона. // «Известия Российской академии наук. VI серия». – Ташкент: — 1924. — С. 18.
6. Нельдеке, Теодор // Энциклопедический словарь Брокгауза и Ефрана : в 86 т. (82 т. и 4 доп.). — СПб., 1890—1907.
7. Тримингэм Дж. Суфийские ордены в исламе / Пер. с англ. А.А. Ставиской; под ред. О.А. Акимушкина. – М.: Наука. Главная редакция Восточной литературы, 1989. – 328 с.
8. Schimmel, Annemarie. Mystical dimensions of Islam. The University of North Carolina Press Chapel Hill. 1975. – 512 p.